

# СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддиқова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масбул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Узбекистан)

**Якуб Умар оглы**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Куренов Рахыммамед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Джеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Балтабоев Ҳамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дустмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сиддиқова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarchodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)


PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Nurmatova Zarifa Abdiraup qizi</b> IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
<b>2. O‘tamuradova Malohat</b> ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
<b>3. Петросьянц Эрнст Ашотович</b> ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
<b>4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi</b> O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
<b>5. Gulamova Malika Yakubovna</b> O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDAH USULLARI.....	27
<b>6. Achilova Ozoda Farxodovna</b> YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
<b>7. Nematillayevna Zubaydova</b> PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
<b>8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна</b> ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
<b>9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi</b> SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
<b>10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna</b> MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
<b>11. Malika Solieva</b> PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
<b>12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna</b> “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
<b>13. Shamuradova Naima Muxtarovna</b> DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
<b>14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li</b> STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA‘SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
<b>15. Tashkulova Zarnigor</b> “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI..	74
<b>16. Jo‘raqulova Mushtariy</b> O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	79
<b>17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna</b> TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

<b>18. Зулфанова Нигина Нуриддиновна</b> СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
<b>19. Turakulova Sitora Fazlidinovna</b> JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
<b>20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmuratovna</b> "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
<b>21. Erkinova Ruxshona O‘tkirovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna</b> YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
<b>22. Qayimova Maftuna Tursunovna</b> OILAVIY MUHITDA QIZLARING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O‘ZBEKISTONDA).....	114
<b>23. Хасанова Мавлюда Батыралиевна</b> ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
<b>24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna</b> “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
<b>25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova</b> PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
<b>26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna</b> YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O‘LIMNING YANGI IFODASI.....	139
<b>27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich</b> TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
<b>28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi</b> SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE‘RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
<b>29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna</b> DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA‘MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
<b>30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna</b> O‘ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
<b>31. Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich</b> ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
<b>32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna</b> MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOYILLARI.....	170
<b>33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna</b> AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Erkinova Ruxshona O'tkirovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi


ruxshona.erkinoва23@gmail.com

Ilmiy rahbar

**Kurbonova Gulnoza Irkinovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti, PhD dotsent

## YAPON VA JAHON ILMIIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.18734066>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yaponiya ilmiy-fantastika (SF) adabiyoti va jahon (asosan G'arb mamlakatlari) SF adabiyotining asosiy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mavzular, qahramon obrazlari, ilmiy g'oyalar, tarbiyaviy mazmun, milliy mentalitet va texnologiya aks etishi kabi omillar o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Yaponiya SF adabiyoti ko'proq texnologiya-jamiyat-axloq muvozanatiga e'tibor qaratadi, jahon SF adabiyoti esa ilmiy kashfiyot, kosmik tadqiqotlar va ijtimoiy muammolarga urg'u beradi.

**Kalit so'zlar:** SF, ilmiy-fantastika adabiyoti, yapon adabiyoti, jahon adabiyoti, ilm-fan, texnologiya, qiyosiy tahlil.

**Erkinova Rukhshona Utkirovna**

Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages

rukshona.erkinoва23@gmail.com

Scientific supervisor

**Kurbonova Gulnoza Irkinovna**

Samarkand State Institute of Foreign Languages, PhD, Associate Professor.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF JAPANESE AND WORLD SCIENCE FICTION (SF) LITERATURE

### ABSTRACT

This article provides a comparative analysis of the main features of Japanese science fiction (SF) literature and world (mainly Western) SF literature. The study examines such factors as themes, hero images, scientific ideas, educational content, national mentality, and the reflection of technology. The results show that Japanese SF literature focuses more on the balance between technology-society-ethics, while world SF literature emphasizes scientific discovery, space exploration, and social problems.

**Keywords:** Science Fiction (SF), science fiction literature, Japanese literature, world literature, science, technology, comparative analysis;

**Эркинова Рухшона Уткировна**Студентка Самаркандского государственного института иностранных языков  
rukshona.erkinoва23@gmail.com

Научный руководитель

**Курбонова Гулноза Иркиновна**Самаркандский государственный институт иностранных языков, кандидат  
филологических наук, доцент**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯПОНСКОЙ И МИРОВОЙ НАУЧНО-  
ФАНТАСТИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ****АННОТАЦИЯ**

В статье представлен сравнительный анализ основных особенностей японской научной фантастики (НФ) и мировой (преимущественно западной) научной фантастики. В исследовании рассматриваются такие факторы, как тематика, образы героев, научные идеи, образовательное содержание, национальный менталитет и отражение технологий. Результаты показывают, что японская НФ больше фокусируется на балансе между технологиями, обществом и этикой, в то время как мировая НФ делает акцент на научных открытиях, исследовании космоса и социальных проблемах.

**Ключевые слова:** НФ, детская литература, японская литература, мировая литература, технологии, сравнительный анализ.

**KIRISH**

Adabiyotida ilmiy-fantastika (SF) yoʻnalishi XX asrdan boshlab jadal rivojlanib, yosh avlod tafakkurini kengaytirish, ilm-fanga qiziqishni oshirish va kreativ dunyoqarashni shakllantirishda muhim oʻrin egallab kelmoqda. Ilmiy-fantastik asarlar talaba-yoshlarga nafaqat badiiy zavq bagʻishlaydi, balki ularni kelajak texnologiyalari, ilmiy kashfiyotlar, fan va jamiyat rivoji haqida oʻylashga undaydi. Bugungi globallashuv jarayonida turli mamlakatlarning SF adabiyoti oʻzaro taʼsirga kirishgan boʻlsa-da, har bir hududning mazkur janrga yondashuvi milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar, tarbiyaviy yondashuv va ijtimoiy voqeliklar bilan farqlanadi.

Yaponiya ilmiy-fantastika adabiyoti oʻziga xos koʻrinishga ega boʻlib, unda texnologiya, axloqiy tarbiya, jamiyat manfaatlari va tabiat bilan uygʻunlik gʻoyalari ustuvor oʻrin tutadi. Jahon, ayniqsa, Yevropa va AQSh SF adabiyotida esa ilmiy kashfiyot, kosmik tadqiqotlar, shaxsiy rivoj, mustaqil fikrlash va kelajak konsepsiyalariga koʻproq eʼtibor qaratiladi. Shu bois mazkur ikki yoʻnalishni qiyosiy tahlil qilish, ularning farqli va mushtarak jihatlarini ilmiy asosda ochib berish dolzarb hisoblanadi.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, u yoshlar dunyoqarashi shakllanishida SF adabiyotining taʼsirini, Yaponiya va jahon adabiy maktablarining oʻzaro farqlarini hamda zamonaviy taʼlim va tarbiyadagi ahamiyatini tahlil qilishga yoʻnaltirilgan. Tadqiqot natijalari bola va yoshlar uchun ilmiy-fantastik asarlarning tarbiyaviy, maʼnaviy va intellektual ahamiyatini chuqurroq anglashga koʻmak beradi.

Ilmiy-fantastika adabiyot bolalarning tasavvurini kengaytirish, ilm-fanga qiziqishini kuchaytirish va kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi. Bugungi globallashuv sharoitida Yaponiya ilmiy-fantastika adabiyoti bilan jahon, ayniqsa, Gʻarb mamlakatlari SF adabiyoti oʻrtasidagi farqlar va oʻxshashliklarni tahlil qilish ilmiy ahamiyatga ega. Har ikki yoʻnalish mazmunan boy boʻlsa-da, ular shakllanish jarayonida milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar va tarbiyaviy maqsadlar bilan farqlanadi.

**Jahon ilmiy-fantastika adabiyotining asosiy xususiyatlari:**

Jahon, xususan, Yevropa va AQSh SF adabiyotida quyidagi jihatlar ustuvor:

1. Fan taraqqiyoti, ilmiy-texnik kashfiyot va kosmik tadqiqotlar

Fan yutuqlari, fan taraqqiyotiga asoslangan kelajak, boshqa sayyoralarga sayohat, sarguzasht eng asosiy mavzulardandir. Misol sifatida ilmiy-fantastika adabiyotining asoschisi Jül Vernning “Yer markaziga sayohat”, “Yerdan Oyga”, “Oy boʻylab sayohat” kabi asarlarini keltirish mumkin. Jül Vern

ilmiy fantastikaga ilmiy asos va real texnika g'oyalarini olib kirgan. Ko'p ixtirolar (suvosti kemasi, kosmik parvoz g'oyasi) keyinchalik hayotda yuzaga keladi.

## 2. Texnika taraqqiyoti, evolutsiya, utopiya va anti-utopiya

Falsafiy-ijtimoiy fantastika, inson evolyutsiyasi, ilmiy tajriba natijasining oqibatlarini, insoniyat kelajagi, global urush kabi mavzularni keltirish mumkin. Misol uchun ilmiy-fantastika adabiyotining yana bir buyuk poydevor qo'ychisi Herbert Uells va uning "Vaqt mashinasi", "Ko'rinmas odam" va boshqalar yaqqol misoldir.

## 3. Individual qahramonlik va shaxs rivoji

Ko'plab G'arb SF asarlarida individualizm kuchli tasvirlanadi. Asar qahramoni mustaqil qaror qabul qiladi, muammoni o'zi hal etadi, liderlik xususiyatlarini namoyon qiladi.

## 3. Ilmiy tafakkurni rag'batlantirish

Asarlar ilmiy mantiq, izlanish, tajriba o'tkazish kabi jarayonlarga urg'u beradi. Qahramonlar ilm-fan natijalari orqali muammoga yechim topadi.

## 4. Ijtimoiy-gumanitar muammolar yoritilishi

Texnologiya taraqqiyoti bilan bog'liq xavflar, insoniyat kelajagi, tenglik, kibermakon muammolari yoritiladi. Bu kabi ilmiy taraqqiyot imkoniyatlari bilan bir qatorda uning xavfini, oqibatlarini ko'ra bilgan Herbert Uellsning ogohlantiruvchi hamda pessimist qarashlari ham misoldir.

Yaponiya ilmiy-fantastika adabiyoti, xususan bolalarga mo'ljallangan SF adabiyoti ko'pincha texnologiya bilan axloqiy qadriyatlarining uyg'unlashuviga asoslanadi. Asarlarda robotlar, sun'iy intellekt yoki kelajak texnologiyalari bola ongida ijtimoiy mas'uliyat, do'stlik, halollik, mehr-oqibat kabi tushunchalar bilan bog'lab talqin qilinadi. Masalan, "Doraemon" kabi mashhur asarlarda kelajak texnologiyalari yordamchi vosita sifatida namoyon bo'ladi, biroq ularning to'g'ri yoki noto'g'ri ishlatilishi orqali bolaga axloqiy saboq beriladi. Yaponiya adabiyotida qahramonlar ko'pincha jamoa bilan harakat qiladi, bu esa yapon jamiyatida ustuvor bo'lgan kollektivizm mentalitetining adabiyotga singganligini ko'rsatadi. Shuningdek, tabiatga hurmat, ekologik muammolar, texnologik taraqqiyotning salbiy oqibatlaridan ogohlantirish kabi mavzular muntazam uchraydi. Shuningdek, yapon SF adabiyoti anime va manga bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ko'plab fantastik g'oyalar vizual shaklda bolalarga yanada qiziqarli tarzda yetkaziladi.

### **Yaponiya SF bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari:**

Yapon bolalar uchun mo'ljallangan fantastik adabiyotida quyidagi xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi:

#### 1. Texnologiya va axloqiy qadriyatlar uyg'unligi

Yapon asarlarida texnologiya yutuqlari ko'pincha axloqiy sinovlar orqali yoritiladi. Robotlar, sun'iy intellekt, vaqt mashinalari kabi g'oyalar insoniylik, do'stlik va jamiyatga mas'uliyat bilan bog'lanadi. Masalan, "Doraemon" asari robot qahramon tasviri orqali bolalarga axloqiy saboq beradi.

#### 2. Kollektiv mentalitet aks etishi

Yaponiyadagi ilmiy-fantastik asarlarda jamiyat, guruh va oila manfaatlari ko'pincha individual manfaatlardan ustun qo'yiladi. Qahramonlar odatda jamoa bilan birgalikda harakat qiladi. Bu holat yapon madaniyati hamda ijtimoiy qadriyatlarining adabiyotdagi in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi.

#### 3. Tabiatga hurmat va ekologik mafkura

Ko'plab asarlarda ilmiy taraqqiyot tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishi lozimligi targ'ib etiladi va tabiat muhofazasi mavzusi muntazam uchrab turadi. Bu holat yaponlarning tabiatga bo'lgan chuqur hurmati, uni qadrlashi hamda tabiat bilan uyg'un yashashga asoslangan hayot tarzini aks ettiradi.

#### 4. Anime va manga ta'siri

SF adabiyoti ko'pincha vizual madaniyat bilan integratsiyada rivojlanadi. Ko'plab asarlar manga yoki anime shaklida mashhur bo'ladi, bu esa bolalar uchun yanada qiziqarli shakl yaratadi.

Jahon, xususan, Yevropa va AQSh SF adabiyotida esa ilmiy kashfiyot, kosmik izlanishlar, kelajak texnologiyalari, koinotni o'rganish, ijtimoiy-gumanitar muammolarni yoritish kabi masalalar yetakchi o'rinda turadi. Jül Vern, Herbert Uells kabi yozuvchilarning asarlarida ilmiy izlanish, tajriba o'tkazish, fanga tayanish va ilmiy mantiq orqali muammolarni hal qilish g'oyalari ilgari suriladi. G'arb adabiyotida individualizm kuchli: qahramonlar mustaqil fikrlaydi, o'z qarorini o'zi qabul qiladi, tashabbuskorlik va liderlik sifatlari orqali muammolarga yechim topadi. Bu yo'nalish bolalar

va yoshlarda mustaqillik, erkin fikrlash, yangilikka intilish kabi xususiyatlarni shakllantiradi. Shuningdek, texnologiya taraqqiyoti oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy tengsizlik, kibernetika, robototexnika va sun'iy intellektning insoniyat kelajagiga ta'siri kabi mavzular ham keng yoritiladi.

Yaponiya va jahon SF adabiyotini taqqoslash natijasida ular o'rtasida muayyan farqlar mavjudligi ko'rinadi. Yaponiya asarlarida texnologiya asosan tarbiyaviy maqsad bilan uyg'unlashgan holda tasvirlansa, jahon adabiyotida ilmiy izlanishning o'zi markaziy o'rinda bo'ladi. Yapon mualliflari bolaga "jamiyat uchun foydali bo'lish" g'oyasini singdirishga harakat qilsa, G'arb adabiyotida "o'zingni rivojlantir, fikrla, kashf qil" tamoyili ustuvordir. Biroq har ikki yo'nalish bolalarda kelajak haqida o'ylash, tasavvurini boyitish, ilm-fanga muhabbat uyg'otish kabi umumiy maqsadlarga xizmat qiladi. Zamonaviy davrda ushbu ikki yo'nalish bir-biriga ta'sir o'tkazmoqda: yapon adabiyotida kosmik mavzular ko'payib borayotgan bo'lsa, G'arb SF adabiyotida axloqiy-tarbiyaviy komponentlar kuchaymoqda.

### XULOSA

Yaponiya va jahon ilmiy-fantastika (SF) adabiyoti qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki adabiy maktab mazkur janrni rivojlantirishda o'ziga xos yondashuvga ega bo'lib, bolalar hamda yoshlar tafakkurini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Yaponiya SF adabiyotida texnologiya va axloqiy qadriyatlar uyg'unligi, jamiyat manfaatini ustuvor qo'yish, tabiatga hurmat va ekologik mas'uliyat kabi g'oyalar yetakchi ahamiyatga ega. Jahon, ayniqsa, G'arb SF adabiyotida esa ilmiy izlanishlar, kashfiyotlar, kosmosni o'rganish, shaxsiy rivoj, mustaqil fikrlash va kreativlikka keng e'tibor qaratiladi.

Tahlillarga ko'ra, yapon adabiyoti bolalarni jamiyatga foydali shaxs bo'lishga undasa, jahon SF adabiyoti ularni fikrlash, izlanish, yangilik yaratish va kelajakni ilmiy asosda tasavvur qilishga chorlaydi. Biroq, har ikki yo'nalishda ham ilm-fanga hurmat, kelajak uchun intellektual tayyorgarlik, ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirishdek umumiy maqsad mavjud.

Demak, Yaponiya va jahon SF adabiyotining bir-birini to'ldiruvchi jihatlari ularning o'zaro ta'sirini kuchaytirib, global ilmiy-fantastika adabiyot manzarasini boyitmoqda. Ushbu ikki adabiy maktab tajribasini uyg'unlashtirish kelajak avlodning ilmiy-texnik tafakkurini, ma'naviy barkamolligini hamda keng dunyoqarashini shakllantirishda samarali omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya va jahon ilmiy-fantastika adabiyotining rivoji bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega. Yapon SF adabiyoti texnologiya va insoniy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni targ'ib etsa, jahon SF adabiyoti ilmiy izlanishlar, kashfiyot va shaxsiy rivojlanishni asosiy yo'nalish sifatida ilgari suradi. Har ikki adabiyot maktabi bolalarda ijodkorlik, tafakkur va ilmiy qiziqishni rivojlantirish orqali kelajak uchun ma'naviy va intellektual asos yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Anderson, B. *Science Fiction for Young Readers*. – Oxford: Oxford University Press, 2017.
2. Asimov, I. *Foundation and Earth*. – New York: HarperCollins, 1996.
3. Carter, T. *Comparative Analysis of Children's Science Fiction Literature*. *International Literary Review*, vol. 12, no. 3, 2021, pp. 44–59.
4. Mori, A. *Modern Japanese Children's Literature and Society*. – Tokyo: Shueisha, 2020.
5. Reynolds, K. *Children's Literature: A Very Short Introduction*. – Oxford: Oxford University Press, 2011.
6. Sterling, B. *The Evolution of Science Fiction Themes in Children's Literature*. *Literary Research Journal*, vol. 7, no. 1, 2020, pp. 73–88.
7. Tanaka, M. *Children's Science Fiction in Japan*. – Kyoto: Kyoto University Press, 2019.
8. Uells, H. G. *The Time Machine*. – London: Penguin Books, 2018.
9. Verne, J. *From the Earth to the Moon*. – London: Wordsworth Editions, 2008.

10. Yoshida, K. SF and Manga Culture in Japan. *Journal of Asian Literature*, vol. 5, no. 2, 2022, pp. 112–128.
11. Zipes, J. *Sticks and Stones: The Troublesome Success of Children’s Literature from Slovenly Peter to Harry Potter*. – London: Routledge, 2001.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА  
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000